

## SO'NGGI YILLARDA MAMLAKATIMIZDA TURIZM SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR VA TATBIQ ETILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Abdirashidova Madina Abduraxmon qizi  
Termiz davlat universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mamaraimova Dildora  
Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda mamlakatimizdagi turizm sohasida kuzatilayotgan o'zgarishlar, innovatsion g'oyalar asosida turizmda amalda qo'llanilayotgan yangiliklar, pandemiyadan keyin O'zbekiston o'zining turistik faoliyatini qay darajada tiklab, rivojlantirganligi to'g'risida fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** turizm, COVID-19, turistik xizmat, turoperator, turizm sanoati, turist, tarixiy obektlar, insoniy qadriyatlar.

### ABSTRACT

In this article, the changes observed in the field of tourism in our country today, the innovations that are practically used in tourism based on innovative ideas, and the extent to which Uzbekistan has restored and developed its tourism activities after the pandemic are described.

**Key words:** tourism, COVID-19, tourist operator, tourism industry, tourist, historical objects, human values.

O'zbekistonning ilk mustaqillik kunlaridayoq turizm masalasi yurt taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi asosiy omil sifatida qaralgan. Ushbu sohaning rivoji uchun aholi va hukumat tomonida e'tibor qaratildi hamda tashkiliy ishlar bo'yicha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Aytish joizki, turizm sohasida faoliyat yuritib kelayotgan kadrlar O'zbekistonda qay darajada ushbu sohaning dolzarbliligini kuchaytirish va jahon miqyosida tutgan o'rni bo'yicha bir nechta amaliy islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Quvonarlisi shundaki, amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunda yurt rivoji uchun o'z samarasini berib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda turizm salohiyatini rivojlantirish va ushbu soha bo'yicha jahonning yetakchi davlatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlovchi dasturlarni ishlab chiqarishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shunga ko'ra, 2016-yilda O'zbekiston turizm sohasini tubdan isloh qilish jarayoni boshlandi. Chunki O'zbekiston o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, noyob moddiy va nomoddiy madaniy qadriyatlari, me'moriy obidalari bilan jahonda alohida mavqega ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan

betakrorligi va iqlimiy mo'tadilligi tufayli turizmning deyarli barcha turlari uchun qulay sharoitlar mavjud, ammo shunga qaramasdan hozirgi kunda mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasi ancha past. Respublikamizda mavjud 8 mingdan ortiq madaniy va tabiiy meros obektlaridan atigi 58 foizdan turistik maqsadlarda foydalaniladi, xolos.

Hammamizga ma'lumki, 2019-yilda boshlangan koronavirus infeksiyasi va 2020-yil boshlarida e'lon qilingan COVID-19 pandemiyasi jahon turizm sanoatiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Bu davrda tabiiyki, dunyo bo'yicha birinchilardan bo'lib turizm sohasi jiddiy yo'qotishlarga uchradi. Masalan, dunyo bo'yicha ko'plab mamlakatlar 2019-yilda turizmdan yuqori darajada foyda olgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu tendensiya shiddat bilan pasayib borganligini ushbu raqamlar orqali ko'rsak bo'ladi.

Jahon turizm sanoati 2020-yilning 1-choragidayoq 22 foizga tushib ketdi, keyin bu ko'rsatkich yilning o'rtalariga kelib, 57 foizga kamayganligi sababli dunyo bo'yicha jami 67 mln kishining ishsiz qolishiga olib keldi. Mintaqalar miqyosida qaraydigan bo'lsak, Osiyo tinch okeani mintaqasi COVID-19 pandemiyasidan eng ko'p zarar ko'rgan mintaqa sifatida baholandi, mintaqaning turizmdan ko'rgan zarari 35 foizga pasaydi. Mintaqalar doirasida, 2020-yil 1-choragida eng katta pasayish Yevropada – 19 foiz, Amerika qit'asida – 15 foiz va Yaqin Sharqda – 11 foizni tashkil qildi. Jahondagi barcha mamlakatlar turizmida boshlangan inqiroz O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. 2019-yilda turistik xizmatlar eksporti hajmi 1,3-1,4 mlrd dollarni tashkil qilgan edi. 2020-yilning 1-raqim yilligida esa turistik xizmatlar eksportidan tushgan daromad jami 203,5 mln AQSH dollariga tushdi.

Hayriyatki, bu kunlar ham o'tib, davlatning iqtisodiy darajasini qayta tiklash uchun imkoniyatlar paydo bo'la boshladi. 2 yillik pandemiyadan so'ng oyoqqa turgan o'zbek turizmi o'z faoliyatini yana qayta tiklamoqda. O'tgan 6 yil davomida sohada yaxshi o'zgarishlar amalga oshirildi, biroq oldinda turizmni ideal darajada rivojlantirish uchun bajariladigan ishlar esa talaygina.

Hisob-kitoblarga ko'ra 2019-yilda respublikaga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 2016-yilga nisbatan 3,3 baravarga oshgan. O'sha yili qariyb 6,7 mln nafar turist O'zbekistonga sayohat qilgan. 2023-yilda mamlakatga 2020-yilda kutilganidek 7 mln nafar turist tashrif buyurdi va 2 mlrd dollarlik xizmatlar eksport qilindi. Turizm obektlarida 3 ming 652 ta Wi-fi nuqtalari tashkil etildi, 1 ming 901 ta yo'l ko'rsatkichlari o'rnatildi, 132 ta axborot markazlari barpo qilindi. 440 ta turizm obektlari o'rganilib, ushbu obektlarning 250 tasi turizm marshrutlariga kiritildi. 2022-yilning avgust oyidan boshlab, turoperatorlar o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yishlari uchun 50 mln so'mdan grant mablag'lari berildi.

Bir so'z bilan aytganda, O'zbekiston dunyo miqyosida rivojlangan hamda rivojlanib borayotgan davlatlar singari deyarli barcha jabhalarda taraqqiy etib bormoqda. Ayniqsa, turizm sohasi, undagi tabiiy va ma'naviy qulay shart-sharoitlar yurtimizning jahon darajasida tanilishiga katta hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, afsonaviy o'tmishi, Ipak yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan avlodga o'tib keluvchi

hunarmandchilik, xalqning mehmondo'stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi, shu bilan birga xushnud etuvchi O'zbekiston jahonning barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-266-sonli Farmoni, 2016-yil 2-dekabr
2. M.A.Mrzayev, M.T.Aliyeva "Turizm asoslari" T:2011
3. T.Xoldarov, X.Tulinova "Turizm sayyohlik" Toshkent 2016
4. Мамараимова Д. Б. "Сравнительный анализ лексики узбекского и английского языков в методических целях. Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g'oyalar, takliflar va yechimlar" mavzusidagi 34-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi materiallari to'plami 15-aprel, 2022-yil 35-son.Uzbektourism.uz 119-б.
5. Lex.uz